RAUF PARFI SHE’RIYATIDA TASVIRIY VOSITALAR LINGVOPOETIKASI

Ne'matilloyev Jahongir Umidjon o'g'li, Magistr

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy o‘zbek she’riyatida alohida mavqe egallagan Rauf Parfi ijodining lingvopoetik tahlili berilgan. Shoir she’rlarida ishlatilgan o‘xshatishlar ko‘rib chiqilib, misollar asosida ularning o‘xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar:zamonaviy o‘zbek she’riyati, lingvopoetik tahlil, o‘xshatish, poetik vosita, o‘xshatish vositasi

Shoir she’rlarida, asosan, tabiat hodisalari, inson bilan bog‘liq mavjhum tushunchalar, shaxs otlari, konkret va mavhum otlar o‘xshatish etaloni sifatida tanlanadi. O‘zbek tilida sifat, ravish yasovchi bir qancha affikslar, yordamchi so‘zlar, shuningdek, kelishik qo‘shimchalari bilan birgalikda kelgan leksik vositalar o‘xshatish munosabatini ifodalaydi.1 Rauf Parfi she’rlariga o‘xshatish vositasi sifatida *-day, -dek, -cha, -larcha, -dan* affikslari va *kabi, go‘yo, misoli, yanglig‘* yordamchi so‘zlari hamda ayrim morfologik-leksik vositalarni tanlaydi. Shuningdek, shoir hech qanday shakliy ko‘rsatkichsiz o‘xshatishlarni ham yaratadi.

Biz dastlab shoir she’riyatida mavjud o‘xshatishlarda o‘xshatish vositasi affikslar ishtirok etgan she’riy parchalarni tahlilga tortamiz. Masalan:

Shilliqurtday to‘lg‘anar ariq,
Suyanaman badburush tolga.
Osmon yuzi shundayin sariq,
Sovuqlikni qaylardan olgan? (“Men kimnidir kutgayman, mahzun”)

Ushbu she’riy parchaning birinchi misradagi *“Shilliqurtday to‘lg‘anar ariq”* birikmasida o‘xshatilmish — *ariq*, etaloni esa — *shilliqurt* hisoblanadi. O‘xshatish vositasi “-day” affiksi yordamida yuzaga kelgan. Shoir ariqdagi suvning harakatini

1 Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976, – Б. 34.

tasvirlashda oddiylikdan qochib, uni shilliqurtning sudralib sekin harakat qilishiga va yaltirashiga qiyoslaydi. An’anaviy tasvirlardan ma’lumki, ariq, suv ko‘p hollarda kumush tasma, hayot manbayi, tiriklik belgisi sifatida gavdalantiriladi. Rauf Parfining mazkur she’rida esa estetik jihatdan kutilmagan obraz — *shilliqurt*ni tanlaydi. Bu esa o‘z tabiatiga ko‘ra sustlik, sovuqlik va noxush taassurot uyg‘otuvchi hasharotning tanlanganligi ijodkor ruhiyatining tushkunligini anglatadi.

Shoir ba’zan *–dek* o‘xshatish vositasidan erkin konstruktiv birliklar tarkibida ham qo‘llaydi. Quyida keltirilgan parchada ushbu vosita orqali ikkita yorqin misol keltirilgan qo‘llanilgan bo‘lib, ular lirik qahramonning ruhiy holatini ta’sirchan va obrazli ifodalashga xizmat qilgan:

Qarsak gurilladi, qandillar titrar,
Sovuq *suv sepgandek* titrar bir odam.
O‘q yegan ohudek muallaq turar,
Shundoq ko‘zlarida yo‘qolgan olam. (“San’atkor”)

O‘xshatish “-dek” affiksi orqali ifodalangan “sovuq suv sepgandek titrar bir odam” misrasida o‘xshatish subyekti — odam, etaloni esa ustiga sovuq suv sepilgan kishi holatidir. Bilamizki, sovuq suvning to‘satdan tanaga tegishi inson organizmida beixtiyor seskanish va titroq paydo qiladi. Ijodkor aynan shu vaziaytni tanlash orqali qahramonning ichki hayajoni, ruhiy larzasi yoki kuchli hissiy kechinmalarini jonli tasvirlaydi. O‘xshatish natijasida titroqning oddiy biologik holati emas, balki kuchli ruhiy zarba oqibatidagi iztirob va bezovtalik ifodalanadi.

Keltirilgan misralarda ikkinchi o‘xshatish “O‘q yegan ohudek muallaq turar” misrasida yuzaga kelgan. Bu yerda o‘xshatish asosi yashirin holda lirik qahramon yoki tasvirlanayotgan inson bo‘lib, etalon sifatida *o‘q yegan ohu* obrazi tanlangan. Ohu ko‘hna Chiqish she’riyatida odatda go‘zallik, nafislik, beozorlik va noziklik timsoli sifatida qo‘llanadi. Shoir esa bu an’anaviy obrazni yangi poetik vazifada ishlatib, uni jarohatlangan, halokat yoqasidagi holatda tasvirlaydi. “O‘q yegan ohu” obrazida og‘riq, ojizlik, sarosima va hayot bilan o‘lim oralig‘idagi muallaq holat

mujassam. Shu sababli o‘xshatish qahramonning ruhiy iztirobini nihoyatda ta’sirchan shaklda ifodalaydi.

Rauf Parfi she’rlarida nafaqat o‘xshatish vositasi sifatida affikslardan, balki ko‘p o‘rinlarda *kabi, yanglig‘, misoli, go‘yo* o‘xshatish yordamchi so‘zlaridan unumli foydalanadi. Masalan, quyida keltirilgan she’riy parchada tabiat hodisasi bo‘lgan tumanni dunyoning qayg‘usiga mengzashi hech qaysi ijodkorda uchramaydigan holatdir. Misralarda o‘xshatish vositasi sifatida –dek va go‘yoki yordamchi so‘zining yonma-yon kelishi o‘xshatishning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Misollarga e’tibor bering:

Tuman – tamaki *tutunidek,*

Go‘yoki dunyoning qayg‘usi.

Quyosh sari ketmakda chekib

Dunyo xayol surib uyqusiz…

Umuman, Rauf Parfi tanlagan o‘xshatishlarda o‘xshatish vositasi sifatida –day, -dek affikslari; kabi, yanglig‘, misoli yordamchi so‘zlari yoki hech qanday vositalarsiz o‘xshatishlar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, shoir o‘xshatish etaloni sifatida murakkab ruhiy holatni o‘quvchiga anglatish maqsadiga qarab tabiat hodisalari yoki borliqdagi biror narsani tanlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Рауф Парфи. Сайланма. Сакина. – Тошкент: “Muharrir” нашриёти, 2013. – 377 б

2.Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси Филол.фан. фалсафа док. (PhD) автореф. – Урганч, 2021.

3.Farida Afroz . Qon akam – Rauf Parfi. // maqola qolyozmasidan olingan.

4.Рауф Парфи. К ўзлар. – Toshkent: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат

5. Сайидова Г. Алишер Навоий асарларидаги ўхшатишларнинг структурал-композитсион, лингвопоэтик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 22 б.